

“Yangi O‘zbekiston – yangi yutuqlar maskani”
mavzusida o‘quvchilar uchun ijodiy topshiriq (esse) va uni himoya qilish

Mashg‘ulot maqsadi

O‘quvchilarda Vatan taqdiri uchun mas’uliyat, millatlararo totuvlikni qadrlash va yagona xalq sifatida jipslashish tuyg‘ularini shakllantirish;

Yangi O‘zbekistonni barpo etishda yoshlarning o‘rni, amalga oshirilayotgan siyosiy-huquqiy islohotlar va zamonaviy imkoniyatlar haqida ma’lumot berish;

Tahliliy fikrlash, jamoada ishlash va o‘z fikrini asosli himoya qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Kutilayotgan natija

Mashg‘ulot yakunida o‘quvchilar “Yangi O‘zbekiston - yangi yutuqlar maskani” mavzusining mazmunini tushunib, mamlakatimizda turli sohalarda amalga oshirilayotgan o‘zgarish va yutuqlar haqida mustaqil fikr yurita oladilar. Ta’lim, ilm-fan, zamonaviy texnologiyalar, tadbirkorlik va boshqa sohalardagi rivojlanishlarni hayotiy misollar bilan izohlash ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar. Shuningdek, mamlakat taraqqiyotida yoshlarning bilim, tashabbus va mehnati muhim ahamiyatga ega ekanini anglaydilar. Mashg‘ulot davomida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish, o‘z fikrini erkin va asosli ifodalash hamda kelajakda Vatan taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shish istagi shakllanadi.

I. Tashkiliy qism (5 daqiqa)

O‘quvchilar bilan samimiy salomlashish, davomatni aniqlash va sinfda ijobiy psixologik muhit yaratish.

O‘quvchilarni mashg‘ulotga tayyorlash, mavzu va mashg‘ulot maqsadi bilan qisqacha tanishtirish hamda ularni faol ishtirok etishga, o‘z fikrlarini erkin va asosli bayon qilishga yo‘naltirish.

II. Nazariy materiallarni mustahkamlash (5 daqiqa)

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, bugungi mashg‘ulotda olgan bilim va tushunchalarimizni mustahkamlash maqsadida sizlarga uyga vazifa sifatida “Yangi O‘zbekiston - yangi yutuqlar maskani” mavzusida ijodiy esse yozish va uni keyingi mashg‘ulotda himoya qilish topshirilgan. Esse 250-300 so‘z hajmida bo‘lishi tavsiya etiladi. Uni yozishda, avvalo, mavzuni to‘g‘ri anglash, asosiy fikrni aniq belgilash va fikrlarni izchil bayon etishga e’tibor qarating. O‘z qarashlaringizni aniq dalillar, hayotiy misollar va mamlakatimizda erishilayotgan yutuqlar bilan asoslashga harakat qiling. Esse kirish, asosiy qism va xulosadan tashkil topishi, fikrlar o‘zaro mantiqiy bog‘langan holda bayon etilishi muhim. Eng asosiysi, tayyor matnni ko‘chirish emas, balki mavzu yuzasidan o‘z fikringizni mustaqil va ijodiy tarzda ifodalashga intiling.

Esse yozib bo‘lingach, unda ilgari surilgan asosiy fikrlar yuzasidan birgalikda fikr almashamiz, o‘quvchilarning qarashlarini tinglaymiz va mavzu bo‘yicha umumiy xulosaga kelamiz.

O‘quvchilar: Tushunarli ustoz.

III. Amaliy ish topshiriqlarini bajarish (25 daqiqa)

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, esse yozishda mavzuni to'liq yoritish uchun uchta asosiy jihatga alohida e'tibor qaratishingizni so'rayman.

Birinchidan, yutuqlarni hayotiy misollar bilan yoritish. Bugungi kunda ta'lim sohasida yaratilayotgan imkoniyatlar, zamonaviy maktablar, IT markazlari, yoshlar uchun tashkil etilayotgan turli ta'lim va rivojlanish imkoniyatlari haqida o'zingiz ko'rgan yoki bilgan misollarni keltiring.

Ikkinchidan, shaxsiy daxldorlikni ifodalash. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan o'zgarish va yutuqlarning sizning hayotingiz, maktabingiz yoki oilangizda qanday namoyon bo'layotgani haqida fikr yuriting. Vatanimiz erishayotgan yutuqlar sizda qanday his-tuyg'ularni uyg'otishini o'z fikringiz bilan ifodalang.

Uchinchidan, kelajakdagi maqsad va o'rningizni ko'rsating. Kelajakda qaysi kasbni egallashni rejalashtirayotganingiz, olgan bilim va ko'nikmalaringiz orqali Yangi O'zbekistonning rivojiga qanday hissa qo'shmoqchi ekaningiz haqida yozing.

Eng muhimi, esse davomida o'z fikrlaringizni mustaqil bayon qiling, hayotiy misollar keltiring va kelajakdagi maqsadlaringizni aniq ifodalashga harakat qiling.

IV. O'rganilgan materialni mustahkamlash (10 daqiqa)

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, esse yozish davomida o'rganganlarimizni mustahkamlash uchun "Fikrlar maydoni" usulidan foydalanamiz. Men sizlarga mavzu yuzasidan bir nechta savollar beraman, sizlar esa o'z fikrlaringizni qisqa va aniq bayon qilasiz.

Sizningcha, "Yangi O'zbekiston - yangi yutuqlar maskani" deganda nimani tushunasiz?

Mamlakatimizdagi qaysi yutuq yoki o'zgarish sizda katta taassurot qoldirgan? Nima uchun?

Bugungi imkoniyatlardan yoshlar qanday foydalanishi kerak?

Siz kelajakda Vatanimiz rivojiga qanday hissa qo'shishni istaysiz?

O'quvchilar: O'quvchilarning javoblari tinglanadi va asosiy fikrlar umumlashtiriladi.

O'qituvchi: Demak, bugungi suhbatimizdan ko'rinib turibdiki, Yangi O'zbekistonning yutuqlari faqat bugungi natijalar bilan emas, balki kelajak uchun yaratilayotgan imkoniyatlar bilan ham belgilanadi. Bu imkoniyatlardan samarali foydalanish, bilim olish, kasb egallash va jamiyat hayotida faol ishtirok etish har bir yoshning muhim vazifasidir.

Shunday ekan, Yangi O'zbekistonning kelajakdagi yutuqlari bugungi yoshlarning bilimi, intilishi va mehnati bilan chambarchas bog'liq.

O'qituvchi: aziz o'quvchilar! Bugungi mashg'ulotda faol qatnashganingiz uchun barchangizga minnatdorchilik bildiraman.